

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14504382>

## FYODOR DOSTOYEVSKIYNING “JINOYAT VA JAZO” ROMANINING MAZMUNI, ASOSIY G‘OYALARI VA FALSAFIY TAHLILI

**Jumayeva Shaxlo**

**Safarova Fotima**

TerDu talabalari.

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada Fyodor Dostoyevskiyning “Jinoyat va Jazo” romanida jamiyat va shaxs o‘rtasidagi murakkab munosabatlar, insonning axloqiy tanlovi, jinoyat va jazo tushunchalari chuqur tahlil qilingan. Asar bosh qahramoni Raskolnikov orqali Dostoyevskiy inson ruhiyati, vijdon azobi va o‘z-o‘zini kechirish kabi mavzularni o‘quvchiga ochib beradi.*

***Kalit so‘zlar:** Dostoyevskiy, Raskolnikov, Jinoyat, Jazo, Axloqiy relativizm, Vijdon azobi, Inson ruhiyati, Ichki monolog, Shaxsiy huquqlar, Tavba, Poklanish, Sonya, Jamiyat, Adolat, Psixologik tahlil.*

Fyodor Dostoyevskiyning “Jinoyat va Jazo” <sup>1</sup>(rus tilida: “Преступление и наказание”) romani inson ruhiyatini chuqur o‘rganishga qaratilgan rus adabiyotining eng mashhur asarlaridan biridir. 1856-yilda yozilgan ushbu roman insoniy axloq, jinoyat va jazo masalalariga bag‘ishlangan bo‘lib, uning asosiy qahramoni Rodion Raskolnikovning ichki qarama-qarshiliklari va qiyinchiliklarini tasvirlaydi.

Romanning qisqacha mazmuni

“Jinoyat va jazo” romani olti qism va epilogdan tashkil topgan. Asar voqealari ijara yashovchi talaba Raskolnikovning qarzdorligi sabab hujrasidan yashirincha chiqishga urinishi tasviri bilan boshlanadi. Voqealar iyulning boshlarida yuz berayotgani ta’kidlanadi. Yana bu voqealar ro‘y berayotgan joy nomi S – ko‘chasi, K

– ko‘prigi deya mavhum ko‘rsatiladi. Harflar orqali obyekt va subyektni bu tarzda nomlash esa bevosita F. Kafkaning “Jarayon”<sup>2</sup> romani sujetini yodga soladi. Nazar Eshonqulning “Go‘ro‘g‘li” romanida ham bu belgilar bor.

<sup>1</sup>Mixaylovich Dostoyevskiyning “Jinoyat va jazo” romani 1956-yil Random House nashriyoti

Rodion Raskolnikov – yosh, kambag‘al talaba bo‘lib, Sankt-Peterburgda yashaydi. Uning ichki dunyosi murosasiz va azobli. Rodion o‘zini "oddiy" va "noyob" kishilarga ajratadi va o‘zi kabi "noyob" shaxslar ba‘zi hollarda jamiyatning axloqiy me‘yorlaridan chiqishi mumkin, degan fikrni olg‘a suradi. U "noyob shaxs" o‘ziga xos bo‘lib, boshqalarga qonun ustidan hukm chiqarishi huquqiga ega, deb hisoblaydi. Bu g‘oyaga asoslanib, Raskolnikov jamiyat uchun ahamiyatsiz bir kishini o‘ldirish orqali o‘zining "kuchli va o‘ziga ishonuvchi shaxs" ekanligini tasdiqlashga urinadi. U kambag‘al foizchi ayolni – Alena Ivanovnani o‘ldirishni rejalashtiradi, uni shafqatsizlik bilan o‘ldiradi, ammo kutilmagan voqea sodir bo‘lib, uning singlisi Lizavetaning ham qotiliga aylanadi. Bu jinoyat Raskolnikov uchun hayotiy o‘zgarishlarni boshlaydi. U butunlay psixologik iztirobga tushib qoladi va o‘z ichidagi azoblarni yengish uchun kurashni boshlaydi. Raskolnikov qilgan jinoyati uchun nafaqat qonun oldida, balki o‘z vijdoni oldida ham javobgar bo‘ladi. Jinoyatdan keyin u ichki ruhiy azoblar va vijdon qiynoqlariga duch keladi. Bu esa jinoyat va jazoning ichki bog‘liqligi, o‘z-o‘zini kechirishning qiyinligi va ichki jazoning qanchalik qiyin bo‘lishini ifodalaydi.

<sup>2</sup>Frans Kafkaning “Jarayon” (nemischa: Der Process, Der Proceß, Der Prozeß, birinchi nashrda: Der Prozess) — romani 1925-yilda nashr etilgan[.]

Dostoyevskiyning Raskolnikov orqali ko‘rsatgan qiyofasi, shaxsiy axloqiy e‘tiqodlar va ichki haqiqat bilan kurashish jarayonlari, o‘quvchini inson ruhi va axloqiy qarama-qarshiliklarning murakkabligiga chuqurroq qarashga undaydi. Dostoyevskiy o‘z asarida ichki monolog va dialoglardan keng foydalanib, qahramonning ichki olamini chuqur o‘rgangan. Bu uslub romanning psixologik chuqurligini oshiradi va o‘quvchiga qahramonning ruhiy holatini yanada yaqinroq his qilish imkoniyatini

beradi. Asar voqealarida sodir bo‘ladigan ichki va tashqi qarama-qarshiliklar orqali Dostoyevskiy insonning axloqiy tanlovi, jinoyat va jazo o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni yoritadi. Roman voqealari va obrazlari, masalan, Raskolnikov va uning sevgilisi Sonya o‘rtasidagi munosabatlar orqali jinoyatning ichki va tashqi oqibatlari ko‘rsatiladi. Sonya obrazida shafqat va mehr-muruvvatni ifodalagan Dostoyevskiy, jinoyat va axloq o‘rtasidagi keskinlikni yengishga o‘ziga xos yechim sifatida mehri taqdim etadi. Sonya, o‘zining shafqat va sevgisi orqali, Raskolnikovni qutqarishga va unga ichki tinchlik topishga yordam beradi. “Jinoyat va Jazo” Dostoyevskiy tomonidan inson tabiatining murakkabligi, imon va axloqiy muammolar bilan kurashish haqida chuqur falsafiy fikrlarni o‘zida mujassamlashtirgan. Dostoyevskiy, jinoyat qilgan shaxsning ruhiy va axloqiy azoblari orqali insonning shaxsiy va jamiyat oldidagi javobgarligini yoritadi. Roman yakunida Raskolnikovning tavba qilishi va oxir-oqibat jazo olish orqali o‘z ruhini tozalashi muallifning insoniy o‘zgarish va ruhiy poklanishga urg‘u berishidan dalolat beradi.

Har doim dolzarb bo‘lib qoladigan muammo insonning ichki kurashidir. Kimdir uchun u umr bo‘yi davom etishi mumkin, kimdir kutilmagan tarzda “davo” topadi. His-tuyg‘ular, fikr kuchi, hissiyotlar, ruhiy iztirob, ongning mo‘rtligi – bu kitobning mazmuni. Mutolaa jarayonida zo‘riqish va hayajonlanish boshidan oxirigacha sizga hamroh bo‘ladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Dostoyevskiy, Fyodor. Jinoyat va Jazo.
2. Mihail Bakhtin. Dostoyevskiy poetikasining muammolari.
3. Joseph Frank. Dostoyevskiy: A Writer in His Time.
4. Victor Terras. A History of Russian Literature.
5. Rene Wellek va Austin Warren. Theory of Literature.
6. Likhachyov, D. S. Rus adabiyoti va madaniyati..
7. Gide, Andre. Dostoyevskiy haqida.
8. Freyd, Zigmund. Psixoanaliz va adabiyot.